



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



TOPISHMOQLARDA OLAM MANZARASI THE WORLD'S PORTRAIT IN RIDDLES

Turg'unova Maftuna Jamoldin qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

2-kurs tayanch doktorant (PhD)

E-mail: front.nurullo@gmail.com

Tel: +99850.704-18-96

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./BDSX4324](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./BDSX4324)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining qadimiy janrlaridan biri bo'lgan topishmoqlarda olam manzarasining badiiy-lisoniy ifodalanishi tahlil qilinadi. Topishmoqlar orqali xalqning tabiat, borliq, inson va jamiyat haqidagi dunyoqarashi, mifologik tasavvurlari hamda milliy tafakkuri yoritiladi. Tadqiqotda olam manzarasi tushunchasi lisoniy, folklor, mifologik va konseptual jihatlardan o'rganilib, topishmoqlarda tabiat, hayvonot va o'simliklar olami, koinot hamda inson faoliyati bilan bog'liq obrazlar tahlil etiladi. Topishmoqlarning kognitiv, tarbiyaviy va estetik ahamiyati ochib berilib, ularning xalq tafakkurini shakllantirishdagi o'rni asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *topishmoq, olam manzarasi, xalq og'zaki ijodi, lisoniy manzara, mifologik tafakkur, kognitiv bilim.*

Annotation. *This article analyzes the artistic and linguistic representation of the worldview in riddles, one of the oldest genres of Uzbek folk oral literature. Riddles reflect the people's perception of nature, existence, human life, and society, as well as their mythological thinking and national mentality. The study examines the concept of the worldview from linguistic, folkloric, mythological, and conceptual perspectives and analyzes images related to nature, flora and fauna, the cosmos, and human activities in riddles. The cognitive, educational, and aesthetic significance of riddles is highlighted, emphasizing their role in shaping folk thinking and cultural identity.*

Keywords: *riddle, worldview, folk oral literature, linguistic worldview, mythological thinking, cognitive knowledge.*

Topishmoqlar – xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va eng mazmunli janrlaridan biridir. Ularda xalqning dunyoqarashi, tabiat haqidagi tasavvurlari, hayot falsafasi, kuzatuvlari, ijtimoiy hayoti va madaniyati mujassam bo'ladi. Xalq topishmoqlarida olam manzarasi badiiy-obrazli til orqali berilib, unda borliqning turli ko'rinishlari, tabiat hodisalari, hayvonot va o'simlik olami, inson faoliyati ramziy tarzda yoritiladi. Topishmoqlardagi olam manzarasi o'quvchini fikrlashga, mantiqiy mulohaza qilishga undaydi, tasavvurini kengaytiradi va badiiy tafakkurini boyitadi.



Olam manzarasi – bu ko'pqatlamli tuzilma. Bu qatlamning har birining shakllanishiga yillar, balki asrlar kerak bo'ladi. Farzandlarga aytilayotgan ertaklar – bolaga yangi so'zlarni o'rgatish, shu bilan birga, olamning folklor (ayni paytda mifologik) manzara haqidagi ilk bilimlar – bolaning milliy o'zligi shakllanishida poydevor vazifasini o'tovchi umummilliy tushunchalar anglana boshlaydi.

Zero, aynan asotirlar va folklor borliq paydo bo'lishi haqidagi bilimlarni jamiyatga xos an'analar haqida, mo'jizalar yuz berishi (mifologik obrazlar), xalq tarixi, jamiyat va odamlar orasidagi munosabatlar, sehrli predmet-artefektlar (o'zi uchar gilamlar, sehrli chiroq, sehrli qalpoqcha), ilk gender xususiyatlar (malikaga erishish uchun qahramonlik ko'rsatish, uch og'a-ini botirlar, yalmog'iz kampir) va h.k haqidagi asosiy tasavvurlarni beradi.

D.Bahranova tadqiqotida olam manzarasini quyidagi kategoriyalarga bo'lgan: olamning sodda manzarasi, olamning lisoniy manzarasi. olamning folklor manzarasi, olamning mifologik manzarasi, olamning konseptual manzarasi, olamning ilmiy manzarasi, olamning siyosiy manzarasi, olamning falsafiy manzarasi, olamning diniy manzarasi, olamning milliy manzarasi, olamning frazeologik manzarasi, olamning zoomorf manzarasi, olamning fitomorf manzarasi, olamning mualliflik manzarasi, olamning gender manzarasi [Bahranova, 2022: 18].

Topishmoqlarda olam manzarasi mavzusi keng qamrovli va turli xil nuqtai nazarlardan yoritilgan. Ushbu adabiy va lisoniy manzaralar, asosan, inson ongida shakllangan olam tasvirlari va ularning ifodalanish usullari bilan bog'liq bo'lib, topishmoqlarda olam manzarasining o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatiladi.

Birinchi, olam manzarasi konsepti topishmoqlarda o'ziga xos lisoniy va ma'naviy manzarani ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Bu manzaralar, tabiiy va kimyoviy hodisalar bilan bog'liq bo'lib, inson ongida yaratilgan olam tasvirlarini aks ettiradi. Konsept terminini “Olam manzarasi” tushunchasidan ajratib bo'lmaydi, chunki u topishmoqlarda olamning keng va chuqur tasvirini hosil qilish uchun asosiy element hisoblanadi.

Ikkinchi, topishmoqlarda olam manzarasi leksik-takror va ohangdoshlik orqali o'ziga xos ohang va muhit hosil qiladi. Bu usullar orqali olamning turli qatlamlari va unsurlari ifodalanadi, shuningdek, inson ruhiyatining turli holatlari va dunyoqarashlarining aks etishi ta'minlanadi. Mifologik va badiiy ijodda ham olam manzarasi, ayniqsa, ot obrazi orqali talqin etilishi, insonning ruhiy va ma'naviy olamining kengayishini ta'minlaydi.

Uchinchi, topishmoqlarda olam manzarasi inson va muhit haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlash orqali shakllanadi. Bu manzaralar, odatda, muhitning shakliy belgilariga va tabiiy hodisalarga ishora qilgan holda, olamning keng va xilma-xil tasvirini yaratadi. O'zbek tilining dunyo miqyosida keng tarqalishi va olam-olam tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, topishmoqlarda

olamning lisoniy manzarasi va uning ifodalanish usullari o'zbek tilining boy madaniy va tilshunoslik merosini aks ettiradi.

Shuningdek, dunyo tilshunosligida olam lisoniy manzarasi, “kasallik” va “salomatlik” kabi tushunchalar bilan bog'liq bo'lib, topishmoqlarda salomatlik va kasallik bilan bog'liq olam tasvirlari ham uchraydi. Bu tasvirlar insonning jismoniy va ma'naviy holatini ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

Bolaning adabiyoti va ifodali o'qishda, topishmoqlarda olam manzarasi, shuningdek, tabiat va muhitning turli unsurlari bilan bog'liq bo'lib, ularning ifodalanishi orqali dunyo tasviri kengayadi. Masalan, “Bahor”, “Tog' manzarasi”, “Suv” kabi topishmoqlar orqali olamning go'zalligi va boyligi namoyon bo'ladi.

Topishmoqlarda olam manzarasining aks etishini shartli ravishda quyidagi turlarga bo'lsak bo'ladi: topishmoqlarda tabiat manzarasi, hayvonot olami manzarasi, o'simliklar va mevalar manzarasi, koinot va borliq manzarasi, inson faoliyati va kundalik hayot manzarasi.

Tabiat manzarasining topishmoqlarda ifodalanishi. Topishmoqlarda tabiat hodisalari ko'pincha jonlantirish (personifikatsiya) va qiyoslash asosida beriladi. Masalan:

Ko'k sandig'im ochildi

Ichidan zar sochildi (quyosh) [Husainova, 2014: 3]. Bu topishmoqda osmon “ko'k sandiq”, quyosh esa “zar” ga qiyoslanib, koinot va tabiatning go'zalligi badiiy obraz orqali tasvirlanadi. Bu holatda olamning mifologik va poetik manzarasi namoyon bo'ladi.

Hayvonot olam manzarasi. Hayvonlar orqali olam manzarasi ko'pincha, antropomorf xususiyatlarda tasvirlanadi:

To'rt oyoqli

Temir tuyoqli (ot) [Abduraximov, 2008: 13].

Ot obrazi topishmoqlarda kuch, tezlik va sadoqat ramzi sifatida namoyon bo'lib, bu orqali xalq tafakkuridagi zoomorf olam manzarasi shakllanadi. Ot mifologik va epik tafakkurda ham markaziy o'rin tutadi.

Xulosa. Topishmoqlar xalqning borliqni idrok etish usuli, hayot falsafasi va dunyoqarashining badiiy timsoli sifatida katta ahamiyatga ega. Topishmoqlarda shu xalq tafakkuri aks etadi, ya'ni ular xalqning kognitiv bilimlari asosiga quriladi. Til egasi topishmoqlar bilan birga til haqidagi mental bilimlarni ham o'zlashtirib boradi. Ular nafaqat ko'ngilochar, balki o'rgatuvchi, tarbiyalovchi, tafakkurni o'stiruvchi kuchga ega. Shuning uchun topishmoqlar o'zbek xalq og'zaki ijodining bebaho boyligi sifatida bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Adabiyotlar:

1. Bolalar uchun topishmoqlar, tez aytishlar, maqollar va she'rlar. Tuzuvchi: Bahridinova Sh. – Toshkent, 2017.



2. Tulenov J. Dialektika nazariyasi. – Toshkent, 2001.
3. O‘zbek xalq topishmoqlari. Tuzuvchi: Husainova Z. 3-nashri. – Toshkent, 2014.
4. Бахранова Д. Ўзбек ва испан тилларида олам манзарасининг линвокогнитив категорияланиши. Фил. фан. Док дисс. – Toshkent, 2022.
5. Ўзбек халқ топишмоқлари. Тузувчи: М.Абдурахимов. www.ziyouz.com кутубхонаси. 2008.
6. Asadov, M. (2026). BADIY PORTRET VA UNING TARJIMADA AKS ETISHI. *TADQIQOTLAR*, 77(3), 111-115.
7. Iqbol O'razova. “Suhayl va Guldursun” dostonida o ‘g ‘uz lahjasining qo ‘llanishi. *UZBEKISTAN*. P. 90
8. MUHAMMADIYEVA, D., & Nigoraxon, O. Boburiylar imperiyasida fan va san’at taraqqiyoti The Development of Science and Art in the Mughal Empire. *ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O ‘RNI*, 144.
9. Shamsieva Manzura, Abdurashitov Naimjon. Bilingualism in psycholinguistic interpretation. *Open Academia: Journal of Scholarly Research* Volume 1, Issue 3, June, 2023 ISSN (E):2810-6377 Website: <https://academiaone.org/index.php/4>.
10. Umurzakova M.E. [Types of linguistic personality in the literary text \(on the example of Ulugbek hamdam's stories\)](#)
11. [Xakimova M. Synesthetic metaphor in uzbek language // Asian Journal of Multidimensional Research](#), January 2021. № 10(3). -P. 495-499.
12. Рашидова, Н. Б. (2017). Аффикация как один из способов словопроизводства терминов сферы образования. In *Язык и литература в поликультурном пространстве* (pp. 72-75).
13. Сирожидинов, Ш., & Умарова, С. (2015). *Ўзбек матнунослиги қирралари*. Akademnashr.
14. ZT Xolmanova, ZMQ Kasimova [REALIYALAR SEMANTIKASINING TARJIMA MATNLARDAGI IFODASI](#). - Academic research in educational sciences, 2021
15. К М. [«Qutadg‘u biliq» asaridagi turkiy so‘zlarning hozirgi o‘zbek tiliga munosabati](#). International congress on Afro-Eurasian research. «Modern Silk Road».
16. В Abdushukurov GENEALOGIC ANALYSIS OF THE VOCABULARY OF «QISASI RABGHUZI». - Theoretical & Applied Science, 2020